

YANGI O'ZBEKISTONDA SOLIQ TO'LOVCHILAR MAJBURIYATLARI BAJARILISHINI TA'MINLASH KONSEPTUAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich,

Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: abducherozov_13@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada davlat fiskal maqsadlari barqarorligini ta'minlashda hamda soliq siyosatining hozirgi zamon talablariga moslashuvchanligiga erishish sharoitida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning konseptual asoslarini takomillashtirish zarurligi, mohiyati, omillari va xususiyatlari masalalari tadqiq etilgan. Yangi O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash konsepsiyasining maxsus varianti (STMBTKMV) ilmiy izohlangan.

Kalit so'zlar: soliq munosabatlari, soliqlar tizimi, soliq majburiyatlari, soliq majburiyatlarning bajarilishi, soliq majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash, soliq majburiyatlarining bajarilishi natijalarini baholash, soliq qarzi, soliqlarning yig'iluvchanligi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030 strategiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni[1] ga muvofiq "mamlakatimizda o'rta va uzoq muddatli istiqbolda soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash strategiyasi"ni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keldi. Ushbu amalga oshirilishi rejalashtirilgan muhim tadbir "O'zbekiston-2030" Strategiyasidagi kabi 2030-yilgacha muddatga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilar soliq majburiyatlari bajarilishi tadbirlarining samarali amalga oshirilishini ta'minlashda soliq amaliyoti uchun *muhim tezkor tadbirlar* sifatida quyidagilarni ta'kilash mumkin:

1. Yangi O'zbekistonda "O'zbekiston-2030" strategiyasidagi iqtisodiy platformaga tayanuvchi soliq tizimi modernizatsiyasi soliq to'lovchilarga interaktiv va axborot tizimlarini samarali tashkil etish, soliq va boshqa majburiy to'lovlarning markazlashtirilgan tartibda hisobini yuritish tizimini joriy qilishga, turli shakldagi tezkor va tahliliy hisobotlarni shakllantirish imkoniyatlarini yaratishga, soliq to'lovchilarga keng ko'lamli zamonaviy interaktiv xizmatlar ko'rsatishning yo'lga qo'yilishiga, axborotlar xavfsizligi ta'minlanishining yuqori darajaga ko'tarilishiga, quyi davlat soliq xizmati organlari faoliyati ustidan nazorat qilishning samarali mexanizmlari yo'lga qo'yilishiga, soliq to'lovchilar majburiyatlarining paydo bo'lishi bo'yicha vazirlik va idoralardan turli yo'nalishdagi ma'lumotlar olinishi tashkil etilishiga va Soliq qo'mitasining ma'lumotlar yagona axborot bazasiga integratsiyalashtirilishiga va natijada, tashqi manba ma'lumotlari asosida qo'shimcha

soliq obyektlarini hisobga olish imkoniyati yuzaga kelishiga va buning natijasida byudjetga solikli tushumlar miqdori oshishiga olib keladi.

2. O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilar soliq majburiyatlari bajarilishi tadbirlarining samarali amalga oshirilishi ilg'or informatsion-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tegishli davlat organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida ma'lumot almashishning samarali tizimini tashkil etishda ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlash uchun soliqlarning elektron ma'murchiligining ilg'or usuli schet-fakturalarni elektron ro'yxatga olishning yagona tizimini tashkil etishga tayanadi.

3. 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va unga keyingi yillarda kiritilayotgan qo'shimchalarg soliq organlari va soliq to'lovchilari muloqotining "hamkorlikda o'sishga asoslangan", sifat jihatidan mutlaqo yangi rejimining yo'lga qo'yilishi lozimligini talab etdi.

"2030-yilga jami to'langan soliq to'lovlari hajmida ixtiyoriy to'langan soliq to'lovlarning ulushini 90 foizgacha yetkazish lozimligi"[2] iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rag'batlantirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish, shuningdek, byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash vazifalarining qo'yilishi moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda soliq intizomini mustahkamlashning dolzarb vazifalarini belgilab berdi. Soliq majburiyatini ixtiyoriy bajarish darajasini oshirish, soliq qonunchiligini buzish holatlarini qisqartirish maqsadida, soliq majburiyatini bajarmayotgan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq nazoratini amalga oshirish hamda ularga nisbatan moliyaviy va ma'muriy jarimalarni qo'llash mexanizmini yaratish, shuningdek muddatlarida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar uchun penya miqdorini oshirish to'lov intizomini buzgan soliq to'lovchilar sonining ancha kamayishiga olib keladi.

4. Soliq imtiyozlarini qo'llanishini qayta ko'rib chiqish va asossiz imtiyozdan foydalanuvchilar uchun ularni bekor qilish hisobiga soliq bazasi o'sishini, sog'lom raqobatni ta'minlashga imkon beradi.

Ilmiy maqolada tadqiq maqsadi Yangi O'zbekistonda byudjet tizimi modernizatsiyasi istiqbollari hamda "O'zbekiston-2030" Strategiyasining byudjet masalalariga oid vazifalarida xarajatlarni optimallashtirish orqali mahalliy byudjetlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'nalishlari bo'yicha xulosalar chiqarishdan iborat.

Ilmiy maqolada tadqiq obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari xarajatlari tizimining ijrosi amaliyoti maydonga chiqadi.

Ilmiy maqolada tadqiq predmetini – Yangi O'zbekistonda byudjet tizimi modernizatsiyasi istiqbollarida mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimini optimallashtirish orqali ular samaradorligini oshirish tadbirlariga oid munosabatlar tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq Kodeksi, boshqa qonunosti hujjatlarda soliq to'lovchilarning majburiyatlari tizimiga, uning shakllari va ko'rinishlariga, soliq majburiyatlariga yaxlit

ta'rif berilmagan hamda soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning tartibi belgilanmagan. Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotda fiskal ijro barqarorligini ta'minlash maqsadida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishining ahamiyatini ta'riflashda yagona yondoshuv yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Xorij adabiyotlarida ushbu kategoriya negizida aksariyat hollarda davlat strategik soliq menejmentining muhim baholovchi ko'rsatkichi tushuniladi. Jumladan, Karolla Pessino va Rikardo Fenochiyetto (Carola Peccino & Ricardo Fenochietto, 2016) tadqiqotlarida qayd etilishicha, soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash mamlakatda amal qiluvchi moliyaviy qonunchilik asosida korxona soliq to'lovlari, imtiyozlari va amaldagi soliq rejimidan samarali foydalanish asosida soliq tushumlari real ijrosi hamda davlatning solikli daromadlar asosidagi moliyaviy imkoniyatlari istiqbollari tushuniladi[3].

Buyuk Britaniyaning Birmingem universiteti professori U.Eyvis hamdo'stlik mamlakatlari misolida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tatbiq etib, soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash soliqdan qochish, soliq solinadigan aktivlar va daromadlarni yashirish holatlarini kamaytirish orqali soliq solish bazasini mustahkamlagan hamda soliq to'lovchilar tomonidan xarajatlarni samarali boshqarilishiga sabab bo'lgan. U.Eyvisning xulosa qilishicha, soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash hamdo'stlik mamlakatlari fiskal barqarorligini mustahkamlab, ularda davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun mablag'lar ajratishi bilan izohlanadi[4].

Jorj Chun-Yan Kuo (George Chun-Yan Kuo, 2015) soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashni hozirgi zamon sharoitida fiskal ijro barqarorligiga erishishning muhim yo'nalishi deb qarab, bunda soliq to'lovchilarning soliq to'lay olish yoki davlatning daromad olish qobiliyati balansi e'tiborda bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi[5].

AQSHning Massachusets texnologiyalar instituti professori H. Cchuberth soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi holati past bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy inqiroz riski yuqori bo'lishi, agar soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi holati yaxshilanmas ekan, hech qanday iqtisodiy vosita bilan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning imkoni yo'qligini tasdiqladi[6].

Tahlillar ko'rsatishicha, iqtisodiy adabiyotda soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashni nazariy asoslashda bir necha ilmiy yondoshuvlar mavjud[7]:

Ba'zi mualliflar tomonidan esa “soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini soliq to'lovchilar va soliq organlari tomonidan fiskal vazifa ijrosi samaradorligi ko'rsatkichi”[8] sifatida tushuntiriladi. Bu tushunchani qonunchilik asosida belgilanadigan soliq to'lash bo'yicha majburiyatlarining bajarilishi sifatida ta'riflash mumkin.

Bir qancha mualliflar “soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi mohiyatini soliq organlari faoliyatining reyting ko'rsatkichi”[9] sifatida e'tirof etganlar.

Ayrim iqtisodchilar “soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi holatini baholash ko'rsatkichi soliq bo'yicha byudjetga qarzdorlik mavjudligi orqali

hisoblanishi"[10] ni ta'kidlamoqdalar. Umuman, soliqqa tortish amaliyotiga oid iqtisodiy adabiyotda va mualliflarning ilmiy chiqishlarida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi holati va uni yaxshilash tadbirlari mazmuni sifatida turli tushunchalar talqin qilinmoqda. Ushbu mavzuning yangiligi va kam o'rganilgan tabiati yosh olimlar va amaliyotchilarning unga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Tadqiq usullari. Maqolada tizimli yondashuv, tasniflash, mantiqiy usul, tizimli tahlili, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish usullari qo'llanilgan. Xususan, tarkibiy va tizimli tahlillardan foydalangan holda, byudjet amaliyotining asosiy ko'rsatkichlari tasniflanadi, boshqa omillarni abstraksiyalash orqali, mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimi samarali ijrosini ta'minlashning davlat byudjet siyosati vazifalari ijrosiga monadligi hamda mahalliy byudjetlar samarali faoliyatini rag'batlantirish dastaklari hayotiyligini ta'minlash masalalari o'rganiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash orqali davlat byudjet daromadlarini shakllantirishning asosiy manbasi bo'lgan soliq tushumlarini oshirib borishda, eng avvalo, mamlakat soliq siyosatini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi. Uning asosiy shartlaridan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va alohida tarmoqlaridagi subyektlarning rivojlanishini, yalpi ishlab chiqarishning o'sishini va soliq yukining iqtisodiyotga hamda soliq to'lovchilarga ta'siri doirasini mukammal tahlil qilish kabilar xizmat qiladi.

1-jadval

2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarida soliqli daromadlar ishtiroki, mlrd so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
	Jami daromadlar	102 627	128 460	147 202	200 000	232 607	270 703	308 546
	Soliqli daromadlar	93 061,3	119 665,6	128 798,7	159 236,0	188 839,5	229 096,0	243 632,0
1.	Bevosita soliqlar	29 125,5	40 584,6	46 845,2	63 330,5	73 955	85 610	100 261
	Foyda solig'i	15 980,0	22 058,7	27 779,4	38 557,2	42 848,3	44 282,7	54 755,5
	Aylanmadan olinadigan soliq	1 192,1	2 458,1	2 160,0	2 728,3	2 811,7	2 851,1	3 513,3
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	11 367,4	16 067,8	16 905,8	22 045,0	28 295,8	38 477,0	41 992,4
2.	Bilvosita soliqlar	47 029,8	58 285,0	62 526,7	73 164,9	88 411,3	111 654,5	104 674,00
	Qo'shilgan qiymat solig'i	11 367,4	44 199,4	46 955,4	53 300,0	63 775,40	74 045,70	71 837,90
	Aksiz solig'i	9 017,5	11 373,6	11 820,1	15 038,3	17 883,90	22 769,20	21 367,10
	Bojxona boji	2 018,8	2 712,0	3 751,2	4 826,6	6 752,00	14 839,60	11 469,00

3.	Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i	16 906,0	20 796,0	19 426,8	22 740,6	26 473,20	31 831,30	38 696,70
	Mol-mulk solig'i	1 851,1	2 369,6	2 510,3	3 173,8	4 332,60	6 715,00	7 691,50
	Yer solig'i	1 834,3	2 474,4	2 941,0	4 253,3	5 805,50	7 171,10	9 185,60
	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	12 952,1	15 606,4	13 588,2	14 403,5	15 535,60	16 684,20	20 653,30
	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	268,5	345,6	387,3	910,0	799,50	1 261,10	1 166,40
4.	Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan boshqa tushumlar	9 565,70	8 794,4	18 403,3	40 764,0	43 768,0	41 607,2	64914,3

2.2-jadval ma'lumotlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibini tahlil qilganda, 2019-2025-yillar mobaynida solikli daromadlari prognoz 2,6 barobarga (243632,0/93061,3) yoki 150571 (243632,0-93061,3) mlrd.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval asosida 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida solikli daromadlar turlari bo'yicha tushumlar dinamikasini yanada aniqroq izohlash muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida solikli daromadlar turlari bo'yicha tushumlar dinamikasi, mlrd.so'm

1-rasmdan ko'rinishicha, ushbu davr mobaynida barcha soliqlardan tushumlar mutlaqo o'sish tendensiyasiga ega, yillar kesimidagi tahlil ko'rsatishicha, bilvosita soliqlardan tushumlarda 2024-2025-yillarda pasayish, resurs soliqlari va mol-mulk

solig'idan tushumlarda esa 2020-2021-yillardagi ijroda pasayish kuzatilgan.

Mamlakatimizda "O'zbekiston-2030" Strategiyasida soliq masalalariga oid belgilangan vazifalar keng ko'lamlilik va dolzarbligini inobatga olib, soliq tizimini modernizatsiyalashning uzoq muddatli strategiyasiga hamohang bo'lgan O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash konsepsiyasining maxsus varianti (STMBTKMV)ni ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega (2-jadval).

2-jadval

Yangi O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash konsepsiyasining maxsus varianti (STMBTKMV)⁹³

Yangi O'zbekistonda STMBTKMV maqsadi va yo'nalishlari	Yangi O'zbekistonda STMBTKMV amalga oshirilishi bosqichlarining tavsifi	Yangi O'zbekistonda STMBTKMV vazifalarini amalga oshirish mezonlari	Yangi O'zbekistonda STMBTKMV samaradorligi-ni ta'minlash shartlari	Yangi O'zbekistonda STMBTKMV vazifalarining amalga oshirilishi va ijrosidan kutilayotgan natija
Yangi O'zbekistonda uning 2030-yilgacha istiqbollarida soliq to'lovchilar soliq majburiyatlari ijrosini ta'minlash muhim va ustuvor masala hisoblanib, ushbu zaruriyat uni ta'minlashga yangi konseptual yondashuvni ishlab chiqishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy havfsizligi maqsadida STMBTKMVning asosiy maqsadi davlat byudjeti samarali ijrosi maqsadida soliq organi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi manfaatlarning uyg'unlashuviga asoslangan soliq	1. 2025-yil. - Soliq ma'muriyatchiligin i ilk bor isloh natijalaridagi samarali vositalarga ega xizmat sifatida ko'rish. 2. 2026-2027-yillar. - Soliq xizmati organlari faoliyatining jahon standartlari darajasiga unifikatsiyasi. 3. 2028-2029-yillar. –soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash vazifalari samarali ijrosi jarayonini yakunlash. 4. 2030-yil –Soliq xizmati organlarining soliq to'lovchilar bilan tejamlilik, natijaviylik va sifat asosidagi "hamkorlikda o'sishga asoslangan"	STMBTKMV samaradorligi mezonlari – manfaatlar uyg'unligi, tejamlilik, natijaviylik va soliq munosabatlarini boshqarish organlari tashkiliy harakatlarining sifati hisoblanadi. STMBTKMV samaradorligi-ning barcha mezonlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning muttasil oshib borishigina soliq intizomini mustahkamlash imkonini beradi.	Yangi O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda STMBTKMV samaradorligini ta'minlash shartlariga rioya etish soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'zaro manfaatli hamkorligini takomillashtirish va soliq ma'muriyatchiligi samarali faoliyatini ta'minlash imkonini beradi.	Kutilayotgan asosiy natija – davlat byudjeti solikli daromadlarining o'sishi bo'lib, unga quyidagilar orqali erishiladi: –soliq qonunchiligi buzilishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash va ogohlantirish; –soliq to'lovchilarga o'z soliq majburiyatlarini talab qilingan tarzda to'liq bajarishdan manfaatdorlik yaratish va ijroni soddalashtirish; –soliq munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarini uyg'unlashtirish.

⁹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

majburiyatlari ijrosini ta'minlashdan iborat.	samarali faoliyati.			
--	---------------------	--	--	--

Mazkur konsepsiyada soliq munosabatlari asosiy subyektlari manfaatlarining birday inobatga olinishi hamda soliq to'lovchilar o'rtasida ularning intizomlilariga soliq xizmati tomonidan yanada yaxshiroq xizmat ko'rsatish, ularning taraqqiyotidan esa soliq intizomi va fiskal imkoniyatlarning yaxshilanishi tendensiyasiga erishishni ta'minlash masalasi qo'yilgan.

Aynan mana shuning uchun ham Yangi O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash konsepsiyasining maxsus varianti (STMBTKMV)ning *bosh maqsadi* davlatning fiskal vazifalarini keng qamrovli, samarali ijrosiga erishish uchun soliq munosabatlari ishtirokchilarining hamjihat rivojlanishining sharoitlarini hozirlashdan iborat.

STMBTKMV *samaradorligi mezonlari* – manfaatlar uyg'unligi, tejamlilik, natijaviylik va soliq munosabatlarini boshqarish organlari tashkiliy harakatlarining sifati hisoblanadi. STMBTKMV samaradorligining barcha mezonlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning muttasil oshib borishigina soliq intizomini mustahkamlash imkonini beradi.

MUHOKAMA

Yangi O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash konsepsiyasining maxsus varianti (STMBTKMV) *samaradorligini ta'minlash shartlariga rioya etish* soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'zaro manfaatli hamkorligini takomillashtirish va soliq ma'muriyatchiligi samarali faoliyatini ta'minlash imkonini beradi.

STMBTKMV vazifalarining amalga oshirilishi va ijrosidan *kutilayotgan natija* – davlat byudjeti soliqli daromadlarining o'sishi bo'lib, unga quyidagilar orqali erishiladi:

- soliq qonunchiligi buzilishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash va ogohlantirish;
- soliq to'lovchilarga o'z soliq majburiyatlarini talab qilingan tarzda to'liq bajarishdan manfaatdorlik yaratish va ijroni soddalashtirish;
- soliq munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarini uyg'unlashtirish.

Umuman, dissertatsion tadqiqotimizda ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonda 2030-yilgacha bo'lgan davrda soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash konsepsiyasining maxsus varianti (STMBTKMV), avvalo, Yangi O'zbekistonning iqtisodiy platformasining bosh maqsadiga hamda uning soliq tizimi modernizatsiyasi vektoriga mos keladi va uning asosiga soliq to'lovchilarda soliq to'lash ixtiyoriyligi ahloqining ustuvorligini ta'minlash masalasi qo'yilgan.

Yangi O'zbekistonning soliq tizimi modernizatsiyasi uchun soliq organlari faoliyatining asosiy vazifasi sifatida – soliq ma'muriyatchiligida soliq to'lovchining talablarini qanoatlantirishga qaratilgan yondashuvni joriy etish, rivojlantirish va modernizatsiya qilish hisoblanadi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiliga

rioya etilishi yuzasidan ular bilan hamkorlik qilishni yo'lga qo'yish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash darajasining pasayishiga ta'sir etadi.

Soliq tizimi modernizatsiyasi yo'llarini yoki soliq to'lovchilarning ixtiyoriylik asosida to'langan soliqlari ulushini oshirishni o'zida jamlagan soliq amaliyotining yangi talablariga mos tarzda soliqqa tortish tamoyillarini takomillashtirish lozim, chunki soliq munosabatlari iyerarxiyasida uning ishtirokchilari o'zaro manfaatlari mutanosibligini ta'minlash soliq to'lovchilar xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi soliq tizimi faoliyati tamoyillari orqali amalga oshiriladi.

Yangi O'zbekistonda soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlash konseptual asoslarini takomillashtirishning muhim yo'nalishi sifatida soliqqa tortish amaliyotining camaradorligi va sifatini oshirishning acociy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- soliq qonunchiligini soliq tizimi modernizatsiyasi nuqtayi-nazaridan takomillashtirish;
- soliq majburiyatlarini bajarish jarayonida soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish;
- soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini bajarish tartiblarini va soliq ma'muriyatchiligi jarayonida soliq organlarining javobgarligini optimallashtirish.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalarni qo'llash Yangi O'zbekistonda soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning konseptual asoslarini takomillashtirishning muhim yo'nalishi sifatida soliqqa tortish amaliyotining samaradorligi va sifatini oshiradi, buning natijasida mamlakat byudjet tizimiga majburiy to'lovlarning barqarorligi va o'z vaqtida kelib tushishi ta'minlanadi; soliq intizomiga rioya qilish darajasi oshirilishiga erishiladi; soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlari amalga oshiriladi; soliq jinoyatlari darajasi kamayadi; jarayon soddalashtiriladi va soliq majburiyatlarini bajarish uchun vaqt, moliyaviy va mehnat xarajatlari qisqartirishiga erishiladi; soliq muhiti yaxshilanishiga erishiladi va boshqalar.

XULOSA

Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonda soliq tizimi modernizatsiyasi istiqbollari hamda "O'zbekiston-2030" Strategiyasining soliq masalalariga oid vazifalarida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash konsepsiyasining maxsus varianti (STMBTKMV) asosida soliq amaliyotida quyidagi tezkor tadbirlar ko'rilishi lozim:

1.O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan va 2020-yildan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi soliq qonunchiligini qo'llashni maksimal darajada soddalashtirish, qarama-qarshiliklar va tushunmovchiliklarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishni ko'zda tutayotganligi, shuningdek, soliq nazorati shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan soliq solish obyektlari va soliq

to'lovchilarni to'liq qamrab olish va hisobga olishni ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish alohida ahamiyatlidir.

2.Soliqlarni to'lamaslik, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soliq to'lovchi sifatida ro'yxatda turmaslik va boshqa shu kabi soliq huquqbuzarlik hamda soliqqa oid jinoyatlar esa soliqlarning huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda bo'lishini bildiradi.

3.Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishi darajasi nafaqat davlat, iqtisodiyot tarmog'i yoki alohida hudud miqyosidagi fiskal barqarorlikka erishishning barcha shakllariga va ayniqsa, soliq to'lovchilar majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning konseptual asoslari va shartlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, Yangi O'zbekistonda soliq tizimi modernizatsiyasi istiqbollari hamda "O'zbekiston-2030" Strategiyasining soliq masalalariga oid vazifalarida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash davlatning fiskal imkoniyatlarining ortib borishini hamda soliq to'lovchilarning manfaatdorliklari orqali ularning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi faol ishtirokini ta'minlaydi. O'rganilgan strategiyaga muvofiq, davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, soliq to'lovchilar faoliyatida "soliq to'lashning ixtiyoriyligi" tamoyili ustuvorligini ta'minlash, soliq to'lovchilar majburiyatlarini bajarishlarini ta'minlash, O'zbekistonda samarali soliq siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, 11-sentyabr). *"O'zbekiston-2030 strategiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida* (PF-158-son Farmon). Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020, 20-noyabr). *Soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida* (736-son Qaror). Toshkent.
3. Pessino, C., & Fenochietto, R. (2016). Determining countries' tax effort.
4. Avis, W. (2016). *Linkages between taxation and stability* (GSDRC Helpdesk Research Report No. 1346). University of Birmingham.
5. Kuo, C. Y. (2015). Estimation of tax revenue and tax capacity (JDI Executive Programs Working Paper No. 2015-08).
6. Schuberth, H. (2014). Tax policies and financial stability: Lessons from the crisis. <https://doi.org/10.7551/mitpress/9780262018340.003.0006>
7. Berdiyeva, U. A. (2019). Iqtisodiyotni erkinlashtirishda soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish yo'llari. *Moliya*, (5), 107–115.
8. Mutalimova, P. M. (2012). Uregulirovaniye nalogovoy zadoljennosti: kompleksnoye resheniye. *Rossiyskoye predprinimatelstvo*, (22), 190–194.
9. Girayev, V. K. (2013). Kompleksnyy podxod k uregulirovaniyu nalogovoy zadoljennosti. *Kazanskaya nauka*, (3), 44–46.
10. Savinov, I. T. (2013). Nalogovaya zadoljennost: problemy administrirovaniya i puti regulirovaniya. *Regionalnye problemy preobrazovaniya ekonomiki*, (3), 210–213.
11. Sirajudinova, S. I. (2017). Povysheniye effektivnosti nalogovogo administrirovaniya na sovremennom etape (Avtoreferat kandidatskoy dissertatsii).

Vladikavkaz.

12. Vilkova, Ye., & Pozov, I. (2013). Sistema pokazateley, xarakterizuyushchix nalogovoye sostoyaniye regiona. *Vestnik Saratovskogo gosudarstvennogo sotsialno-ekonomicheskogo universiteta*, (3), 96–99.
13. Dyakova, Ye. (2012). Nalogovyye potentsial i byudjetnaya yemkost territoriy: otlichiya i vzaimosvyaz. *Nalogi i finansovoye pravo*, (9), 140–145.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *Oliy Majlisga Murojaatnoma (2023-yil uchun ustuvor vazifalar)*. Toshkent.
15. Djamalov, Kh. N. (2021). Three-dimensional system for estimating efficiency and agreement of entrepreneurial activity priorities. *JournalNX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 7(6), 365–370.